



# CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-mart holatiga ko'ra  
dastlabki ma'lumot*

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 260,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **13,0 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **426,4** mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi\* **1 834,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,4 %**), uyushmagan savdo tovar aylanmasi esa **116,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **119,7 %**) tashkil etdi.

\* Uyushmagan savdo tovar aylanmasini qo'shmagan holda

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, foizda



## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **33,2 %** ulush bilan **749,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Navoiy sh.**  
**749,6**

**Karmana t.**  
**390,6**

**Qiziltepa t.**  
**251,3**

**Xatirchi t.**  
**245,4**

**Zarafshon sh.**  
**215,7**

**Navbahor t.**  
**125,7**

**Uchquduq t.**  
**103,5**

**Nurota t.**  
**83,2**

**G'ozg'on t**  
**23,6**

**Konimex t.**  
**56,9**


### ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,7 %** ulush bilan **14,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Tomdi t.**  
**14,9**

### UMUMIY MA'LUMOT

2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 260,7** mlrd. so'mni va 2021- yilning mos davriga nisbatan **113,0 %** ni tashkil etdi.







## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxona- lar, mlrd. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 260,7</b>	<b>113,0</b>	<b>426,4</b>	<b>174,9</b>	<b>1 834,3</b>	104,4
Navoiy sh.	749,6	129,3	358,3	183,9	391,3	101,7
Zarafshon sh.	215,8	105,6	9,9	106,5	205,9	105,6
G'ozg'on sh.	23,6	105,2			23,6	105,2
Konimex t.	57,0	103,4	1,3	77,0	55,7	104,2
Qiziltepa t.	251,3	106,0	3,6	94,1	247,7	106,2
Navbahor t.	125,7	108,4	21,2	199,7	104,5	99,2
Karmana t.	390,7	108,0	26,2	139,8	364,5	106,3
Nurota t.	83,2	111,6	2,0	160,6	81,2	110,7
Tomdi t.	14,9	105,1	0,1	125,6	14,8	104,9
Uchquduq t.	103,5	105,0	1,1	119,1	102,4	104,8
Xatirchi t.	245,4	103,7	2,7	106,5	242,7	103,7

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar, foizda

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2022- yilning yanvar-mart oylarida **426,4** mlrd. soʻmni, bu esa umumiy savdo hajmining **18,9** foiz ulushiga toʻgʻri keldi.



11,1

### Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda

Qiziltepa t. 251,3  
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. soʻm

17,3

Karmana t. 390,7  
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. soʻm

33,2


Navoiy sh. 749,6  
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. soʻm

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 717,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 76,0 % ni tashkil etdi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, foizda**



## Tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm

Qiziltepai t. 234,1

Karmana t. 340,7


Navoiy sh 367,1



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ulushga ega hududlar, foizda**



13,6 


19,8 

21,4 



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha G'ozg'on shahrida (**100,0 %**), Tomdi (**99,1%**), Xatirchi (**98,9 %**), Uchquduq (**98,9 %**) va Qiziltepa (**98,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **18,9 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahrida (**47,8 %**), Navbahor (**16,9 %**) va Karmana (**6,7 %**) tumanlarida kuzatildi.



# AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-mart oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo Tovar aylanmasi **2 181,8** ming so'mni (2021- yilning mos davriga nisbatan **10,8** % ga oshdi) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Navoiy shahri (**4 961,1** ming so'm), Karmana tumani (**2 944,0** ming so'm), G'ozg'on shahri (**2 624,3** ming so'm) va Zarafshon shahri (**2 517,6** ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 181,8</b>	<b>110,8</b>
Navoiy sh.	4 961,1	126,0
Zarafshon sh.	2 517,6	104,8
G'ozg'on sh.	2 624,3	102,9
<i>tumanlar::</i>		
Karmana	2 944,0	102,0
Konimex	1 548,6	104,2
Qiziltepa	1 601,9	106,4
Navbahor	1 074,5	104,7
Nurota	958,7	109,6
Tomdi	961,3	103,0
Uchquduq	2 688,5	102,8
Xatirchi	1 190,2	101,7

## Eng yuqori hajm, ming so'm

Navoiy sh. – 4 961,1

Karmana t. – 2 944,0

G'ozg'on sh. – 2 624,3

Zarafshon sh. – 2 517,6

## Eng quyi hajm, ming so'm

Navbahor t. – 1 074,5

Tomdi t. – 961,3

Nurota t. – 958,7





## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,6 %** ni tashkil etib, **37,1 mlrd. so'm**ga yetdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan **15,7 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **84,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami mln. so'm	2021- yilning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mln. so'm	2021- yilning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mln. so'm	2021- yilning mos davriga nisbatan foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>58 476,3</b>	<b>108,0</b>	<b>11 113,7</b>	<b>123,8</b>	<b>47 362,6</b>	<b>104,8</b>
Navoiy sh.	18 189,9	95,0	1 026,2	32,4	17 163,7	107,5
Zarafshon sh.	9 754,4	111,0	2 691,7	125,4	7 062,7	106,3
G'ozg'on sh.	281,9	108,4			281,9	108,4
tumanlar::						
Karmana	6 518,1	104,7	50,1	86,2	6 468,0	104,9
Konimex	1 039,8	108,4	-	-	1 039,8	108,4
Qiziltepa	3 578,2	106,2	-	-	3 578,2	106,2
Navbahor	11 186,1	137,5	7 345,6	2,0 m.	3 840,4	84,6
Nurota	850,2	109,0	-	-	850,2	109,0
Tomdi	213,7	101,6	-	-	213,7	101,6
Uchquduq	2 553,6	106,4	-	-	2553,6	106,4
Xatirchi	4 310,3	110,7	-	-	4310,3	110,7

## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2021- yil  
yanvar-mart

2022- yil  
yanvar-mart



6,2%



93,8 %



1,8 %



98,2%

 Nodavlat mulk

 Davlat mulki

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **6,2 %** dan **1,8 %** ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **58,5** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **108,0 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **57,4** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**98,2 %**) hamda **1,1** mlrd. so'm (**1,8 %**) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>58,5</b>	<b>108,0</b>	<b>57,4</b>	<b>98,2</b>	<b>1,1</b>	<b>1,8</b>
Navoiy sh.	18,2	95,0	17,1	94,2	1,1	5,8
Zarafshon sh.	9,8	111,0	9,8	100	-	-
G'ozg'on sh.	0,3	108,4	0,3	100	-	-
tumanlar:						
Karmana	6,5	104,7	6,5	100	-	-
Konimex	1,0	108,4	1,0	100	-	-
Qiziltepa	3,6	106,2	3,6	100	-	-
Navbahor	11,2	137,5	11,2	100	-	-
Nurota	0,9	109,0	0,9	100	-	-
Tomdi	0,2	101,6	0,2	100	-	-
Uchquduq	2,6	106,4	2,6	100	-	-
Xatirchi	4,3	110,7	4,3	100	-	-

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **391,7** mlrd. so'mni, 2021- yilning mos davriga nisbatan **108,7** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, yirik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasi **72,8** mlrd. so'mni, 2021- yilning mos davriga nisbatan **139,1** % ni tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

**391,7 mlrd. so'm, 100,0 %**

#### Ulgurji savdo


**72,8 mlrd. so'm,  
18,6 %**

#### Yirik korxonalar




**318,9 mlrd. so'm,  
81,4 %**

#### Mikrofirma va kichik korxonalar

### Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda



### Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari Navbaxor (2,5 m. %), Karmana (114,6 %) hamda Qiziltepa (112,8 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021-yilning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar mlrd. so'm	2021-yilning mos davriga nisbatan, foizda
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>391,7</b>	<b>108,7</b>	<b>72,8</b>	<b>139,1</b>	<b>318,9</b>	<b>103,6</b>
Navoiy sh.	184,4	109,5	55,2	111,5	129,2	108,7
Zarafshon sh.	14,7	105,2	-	-	14,7	105,2
G'ozg'on sh.	1,0	95,8	-	-	1,0	95,8
tumanlar:						
Karmana	122,1	114,6	4,9	2,4 m	117,2	112,1
Konimex	1,3	63,3	0,2	26,9	1,1	83,0
Qiziltepa	29,5	112,8	-	-	29,5	112,8
Navbahor	18,0	2,5 m.	12,5	95,6 m.	5,5	79,9
Nurota	4,6	111,6	-	-	4,6	111,6
Tomdi	0,7	24,9	-	-	0,7	24,9
Uchquduq	3,4	38,3	-	-	3,4	38,3
Xatirchi	12,0	61,4	-	-	12,0	61,4



## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'ngi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'рни pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,2 %** ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **391,7** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi **390,9** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **0,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Davlat mulki, 0,2 %**

**2022- yil  
yanvar-  
mart**

**Nodavlat mulk, 99,8 %**

**Davlat mulki, 0,2 %**

**2021- yil  
yanvar-  
mart**

**Nodavlat mulk, 99,8 %**



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkiga tegishlisi faqatgina Karmana tumanida (**0,8 %**) saqlanib qolinganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkga tegishli.